

O'ZBEK ADABIYOTI: MILLIY TAFAKKUR VA MA'NAVIYAT AKSIDIR

Qurbonboyeva Mohidil

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari va bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Adabiyotning milliy tafakkur shakllanishidagi o'rni, ma'naviy tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati va zamonaviy adiblar ijodi orqali xalq ruhiyatini ifoda etishi yoritiladi. Alisher Navoiydan tortib to mustaqillik davri adabiyotigacha bo'lgan jarayonlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbek adabiyoti, milliy tafakkur, ma'naviyat, Alisher Navoiy, jadid adabiyoti, mustaqillik, zamonaviy adabiyot, ma'naviy meros

Har bir xalqning ma'naviy dunyosini belgilovchi eng muhim omillardan biri – bu uning adabiyotidir. O'zbek adabiyoti esa ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan, boy madaniy merosni o'zida aks ettiruvchi bebaho xazinadir. Bu adabiyot orqali xalqning o'tmishi, hozirgi holati va kelajakka bo'lgan qarashi ifodalanadi. O'zbek adabiyoti faqatgina badiiy go'zallikni emas, balki milliy o'zlik, axloqiy qadriyatlar va ma'naviy yuksalishni ham targ'ib qiladi.

O'zbek adabiyoti asrlar davomida shakllanib, turli davrlarning ijtimoiy, siyosiy, madaniy sharoitlarini o'zida mujassam etgan. Har bir tarixiy bosqichda adabiyot xalq ruhiyatining, hayot tarzining va orzu-umidlarining yorqin ifodachisi bo'lib xizmat qilgan. Jumladan, qadimgi turkiy adabiyotda hikmatli so'zlar va axloqiy tamoyillar asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, Temuriylar davri adabiyotida badiiy mahorat, falsafiy tafakkur va ruhiy yuksalish kuchli tarzda namoyon bo'lgan.

Xususan, Alisher Navoiy ijodi o'zbek adabiyoti tarixida ulkan burilish yasagan bo'lib, nafaqat adabiy-estetik mezonlarni belgilab bergan, balki ona tilida ijod qilishning chinakam namunasi bo'lgan. Keyingi asrlarda jadidlar harakati adabiyotga yangicha nafas olib kirib, uni uyg'onish, milliy o'zlikni anglash va islohotlar vositasiga aylantirgan.

Bugungi kunda esa o'zbek adabiyoti mustaqillik bilan uyg'unlashgan holda yangi bosqichga ko'tarildi. Adabiyot zamonaviy ijtimoiy hayotni aks ettirib, xalqning orzu-umidlarini, muammolarini va istiqbollarini tasvirlashda davom etmoqda. Shu sababli, o'zbek adabiyoti faqat tarixiy yoki badiiy meros emas, balki bugun ham dolzarb bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiyotining ildizlari qadimgi turkiy yozma yodgorliklargacha borib taqaladi. “Qutadg'u bilig”, “Devonu lug'otit turk”, “Hibatul-haqoyiq” kabi asarlar bu adabiyotning ilk namunalaridan hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi o'zbek adabiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Uning g'azal, doston va ilmiy-falsafiy asarlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Adabiyot orqali xalq o'zining dard-u tashvishini, orzu-umidlarini ifoda etgan. Xususan, jadid adabiyoti o'zbek xalqining uyg'onishiga, tafakkur erkinligiga zamin yaratgan. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi jadid adiblar o'z asarlari orqali zamon muammolarini ochib berishga harakat qilishgan. Mustabid tuzum davrida bosim ostida bo'lsa-da, ularning ijodi yangi avlodlar uchun ilhom manbai bo'lib qoldi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mustaqillik yillarida adabiyotga bo'lgan e'tibor ortib bordi. Yangi avlod yozuvchi va shoirlari zamonaviy voqelikni, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni aks ettirib, adabiyotga yangi nafas olib kirishmoqda. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi zamonaviy adiblarning ijodi o'zbek adabiyotining sharaflari an'alarini davom ettiradi.

O'zbek adabiyoti nafaqat badiiy go'zallikni targ'ib qiluvchi ijodiy jarayon, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotini ifodalovchi muhim madaniy qatlamdir. Unda xalqning tarixiy xotirasi, orzu-umidlari, ijtimoiy kurashlari va ma'naviy qiyofasi aks etadi. Ayniqsa, adabiyotda milliy qadriyatlar, axloqiy mezonlar, Vatanni sevish va o'zlikni anglash singari mavzular doimo markazda bo'lgan.

Mustaqillik davri O'zbekistoni adabiyoti esa milliy g'urur va istiqloq ruhini targ'ib etish, xalqning o'z tarixiga, tili va madaniyatiga e'tiborini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda yosh ijodkorlar tomonidan yozilayotgan asarlar ham milliy adabiy merosni boyitmoqda va zamonaviy o'zgarishlarga mos yondashuvlarni taklif qilmoqda.

Adabiyot ta'lim-tarbiya, milliy o'zlikni anglash va madaniy merosni asrash vositasi sifatida hozirgi va kelajak avlod uchun muhim manba bo'lib qolmoqda.

O'zbek adabiyoti – bu xalq ruhining, tarixining va ma'naviyatining yorqin ifodasidir. U nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki milliy g'urur, mustaqil tafakkur va ma'naviy kamolot maktabidir. Adabiyotni sevish – bu aslida Vatanni, millatni sevish demakdir. Shu sababli, o'zbek adabiyotini o'rganish, asarlarini tahlil qilish va yosh avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. *Xamsa*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
2. Qodiriy A. *O'tkan kunlar*. – Toshkent: Sharq, 2008.
3. Oripov A. *Saylanma asarlar*. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
4. Vohidov E. *She'rlar*. – Toshkent: Yozuvchi, 2006.
5. Sirojiddinov Sh. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: Fan, 2009.
6. Sharafiddinov O. *Adabiyot – xalq qalbidir*. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.
7. Xoldorov N. *O'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari*. – Toshkent: Fan, 2007.
8. G'ulomov A. *Jadid adabiyoti va uning tarixiy o'rni*. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
9. Turaqulov D. *Zamonaviy o'zbek adabiyoti*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.